



ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI



O'ZBEKISTON
YOZUVCHILAR UYUSHMASI



Muhammad Rizo Ogahiyning o'zbek mumtoz adabiyoti rivojida tutgan o'rne



mavzuidagi Respublika ilmiy-nazariy anjumani materiallari

Toshkent, 2020-yil 20-may

**O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus
ta'lim vazirligi**

**Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek
tili va adabiyoti universiteti**

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi

**«MUHAMMAD RIZO OGAHIYNING O'ZBEK
MUMTOZ ADABIYOTI RIVOJIDA TUTGAN O'RNI»**

**mavzusidagi Respublika ilmiy-nazariy anjuman
materiallari**

Toshkent – 2020

УЎК 821.512.153(092)

КБК 84

Ogahiy.

Muhammad Rizo Ogahiyning o'zbek mumtoz adabiyoti rivojida tutgan o'rni [Matn]: – Toshkent: Navoiy universiteti nashriyot matbaa uyi, 2020. – 265 b.

Ushbu to'plamda "Muhammad Rizo Ogahiyning o'zbek mumtoz adabiyoti rivojida tutgan o'rni" mavzuidagi respublika ilmiy-nazariy anjumaniga yuborilgan ilmiy maqolalar jamlangan. To'plamda Muhammad Rizo Ogahiyning adabiy-ilmiy merosining mumtoz adabiyotimizdagi o'rni va bugungi ahamiyati, shuningdek, shoir ijodiga bog'liq holda matnshunoslik masalalari, tilshunoslik muammolari haqida so'z yuritiladi. Ogahiy ijodiy merosini o'rganishning bugungi holati va istiqboli borasida muayyan tasavvur berishi uning ahamiyatini belgilaydigan omillardan biridir. Kitob filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistr va bakalavr talabalar hamda keng o'quvchilar ommasiga mo'ljallangan.

Mualliflar qarashlari va asarlar nomlaridagi imlo tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.

Mas'ul muharrir:

Shuhrat Sirojiddinov,
filologiya fanlari doktori, professor

Tahrir hay'ati

Shuhrat Sirojiddinov, Ibrohim Haqqulov, Sirojiddin Sayyid, Nurboy Jabborov, Nafas Shodmonov, Abdulla O'rozboyev, Gulnoz Xalliyeva, Iqboloy Adizova, Karomat Mullaxo'jayeva, Dilnavoz Yusupova, Akromjon Dehqonov, Qo'ldosh Pardayev, Tozagul Matyoqubova, Ozoda Tojiboyeva, Orzigul Hamroyeva.

O'zbek adabiyoti tarixi va folklor kafedrasining 2020-yil 13-may 19-sonli bayonnomasi bilan nashrga tavsiya etilgan.

taxmis bog'lash natijasida mumtoz adabiyotimizga Alisher Navoiy tomonidan olib kirilgan an'analarga yangicha ruh baxsh etib, o'zining izdoshlik salohiyatini namoyon etgan. Shoir taxmis bog'lash uchun o'z g'azallarini tanlar ekan, ulardagi ruhning yoshlikka xos jo'shqin va shiddatkor ekanligiga alohida e'tibor qaratgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мажидий Р. Огаҳий лирикаси. – Тошкент: Фан, 1963.
2. Муҳаммад Ризо Огаҳий. Асарлар. 6 жилдик / Нашрга тайёрловчи С.Долимов, 1-2-жилдлар. – Тошкент.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат, 1972.
3. Носиров О., Жамолов С., Зиёвиддинов М. Ўзбек классик шеърляти жанрляри. – Тошкент: Ўқитувчи, 1976.
4. Орзибеков Р. Ўзбек лирик поэзиясида ғазал ва мусаммат. – Тошкент: Фан, 1976.
5. Шайх Аҳмад ибн Худойдод Тарозий. Фунун ул-балоға (1436 йилда кўчирилган, Бодлиан кутубхонасида сақланувчи Eliott №-127 рақамли Қўлёзма).
6. Эркинов А. Культурный перфекционизм в хивинской придворной среде при Мухаммад Рахим-хане II как способ противостояния режиму русского протектората // История и культура Центральной Азии. – Токио, 2012.
7. Юсупова Д. Алишер Навоий тахмисляри // Шарқ юлдузи. – Тошкент, 2013. – № 2.
8. Юсупова Д. Ўзбек мумтоз ва миллий уйғониш адабиёти (Алишер Навоий даври). – Тошкент: TAMADDUN, 2016.
9. Ҳайитметов А. Навоий лирикаси / Нашрга тайёрловчи ва сўзбоши муаллифи Н.Жумахўжа. – Тошкент: O'zbekiston, 2015.
10. Jumaxo'ja N., Adizova I. O'zbek adabiyoti tarixi (XVI-XIX asr I yarmi). Darslik. – Toshkent: Noshir, 2019.

OGAHIIY RUBOIYLARIDA TABIAT TASVIRI

Shoira AHMEDOVA

filologiya fanlari doktori, professor

G.TESHAYEVA

talaba, BuxDU

Annotatsiya. *Maqolada Ogahiyning ruboiylarida tabiat tasvirining talqini haqida fikr yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *Ogahiy, ruboiy, bahor, shodlik, peyzaj, debocha.*

Ruboiy adabiyotda, she'riyatda fikr va tuyg'ular ifodasining eng qulay shakllaridan biri sifatida alohida mavqega egaki, uning janriy imkoniyatlarini,

shoirilar ijodida tutgan o'rnini o'rganish mumtoz she'rshunoslik uchun qanchalik ahamiyatli bo'lsa, zamonaviy adabiyotshunoslik uchun ham shunchalik muhimdir. Bu janrni tadqiq etishda O.Nosirov, S.Jamolov, M.Ziyovuddinov, I.Haqqulov, E.Ochilovlarning ilmiy tadqiqotlari muhim ahamiyatga ega[1]. Mazkur tadqiqotlarda ilgari surilgan qarashlar ruboiy janri va uning taraqqiyoti bog'liq yaxlit tasavvur paydo etishga xizmat qila oladi. Ammo adabiyot doimo rivojlanishda, u zamon va makon bilan, inson va uning hayoti bilan qadamba-qadam rivojlanib, o'zgarib boradi. Buning natijasida so'z san'atida shakliy va mavzuiy yangilanishlar maydonga chiqadi. Har bir davr har bir mavzuga, bu mavzuni yoritish uchun vosita bo'lib xizmat qiluvchi adabiy janrga o'ziga xos tarzda yangicha munosabatda bo'ladiki, bu o'ziga xosliklarni o'rganish esa muhim vazifalardandir. Bu fikrni o'zbek mumtoz adabiyotining yirik vakillaridan biri Ogahiy lirikasi, xususan, ruboiylari haqida ham aytish mumkin. O'zbek adabiyotshunosligida ogahiyshunoslik sahifalarini boyitgan R.Majidiy, V.Zohidov, Q.Munirov, S.Dolimov, I.Haqqulov kabi olimlarning tadqiqotlarini alohida ta'kidlab o'tish joiz. Shunga qaramay, o'zbek mumtoz adabiyotining yirik vakili bo'lgan Ogahiy ijodi yangi-yangi tadqiqotlarga manba bo'la oladi.

Ogahiy lirikasida g'azal, ruboiy, muxammas, masnaviy, tuyuq, qasida, chiston, qit'a kabi she'riy turlarning yetuk namunalari uchraydi. Shoir she'riyatining salmog'ini uning ruboiylarisiz tasavvur etish mumkin emas. Uning devonida ruboiy muhim o'rin tutadi. Shoir "Ta'viz-ul oshiqin" devoniga yozgan debochasida jumladan shularni bayon etadi: "... Ushbu sayr asnosida har toifaning holig'a loyiq va har jamoaning af'olig'a muvofiq bir mazmun shohidining xayoli xotirim ko'zqusiga xutur qilsa erdi, gunogun iboratlar bila rangin nazmlar libosin kiydirib, dilkash suratlar bila xaloyiq nazarida namoyish berur erdim va har birining rangin ruxsori va mushkin giso'si tomoshosidin shavq va dard ahlining shaydo ho'ngullarin volalig' va asirlig' maqomig'a yetkurur erdim, andoqkim , shavq angliz g'azallar va mav'izaomuz qasidalar va *muhabbat asar ruboiylar* va diqqatparvar masnaviylar va bazmoro muxammaslar va ruhafzo musaddaslar nazm silkiga chekib, bir necha qog'oz poralarg'a musavaddo qilur erdim" [2,39]. Debochadagi bu so'zlar Ogahiy ruboiylarining mavzusini bir qadar tavsiflab beradi.

Ogahiy lirikasida tabiat go'zalligi tasvirlangan janrlar ko'p uchraydi. "Ijobiylik tasdig'i, hayotsevarlik g'oyalari Ogahiy devonidagi bahor, Navro'z, iydi ramazon va qurbon hayiti mavzulariga bag'ishlangan she'rlarida ham old o'ringa chiqadi. Bunday namunalar shoir merosida ancha-muncha. Bu guruhga hayot, bahor va go'zallik ramzi gul hamda bulbul ta'rifidagi g'azal, ruboiy va masnaviylarni ham kiritish o'rinli" [3,8].

Ko'klamning, bahor faslining jonga huzur baxsh etuvchi fazilatlari ta'rifi, yashnab-gullagan tabiat in'omlaridan bahramandlikka da'vat, shu jarayonda hayotsevarlik g'oyalarining badiiy targ'ibi Ogahiyning boshqa tur she'rlarida, jumladan ruboiylarida ham ko'rinarli o'rin tutadi. Bu namunalarda ham bahor xuddi g'azallarida bo'lganidek borliqqa yangi hayot, kishilarga esa shodlik keltiruvchi fasl sifatida tasvirlanadi. Masalan, shoirning "Etkurdi safo yer yuziga fasli bahor" va "Ayyomi bahor keldi hangomi nishot" misralari bilan boshlanuvchi ruboiylari hayotning zavqidan, ona tabiat go'zalliklaridan lazzatlanish g'oyalarini olg'a suradi.

*Yetkurdi safo yer yuziga fasli bahor,
Ochildi gulu, lolau nasrin bisyor,
Kelgilki, chamanlar ichra bazm tuzub,
No'sh aylagali tarab mayini, ey yor.*

Xossayi ruboiy hisoblanib, a-a-b-a tarzida qofiyalangan ruboiyda bahor, bisyor, yor kabi fors-tojikcha so'zlar o'zaro qofiyalanib kelgan. Qofiyadosh so'zlar mutlaq qofiya hisoblanib, ular tovush tarkibiga ko'ra to'liqsiz och qofiya hisoblanadi. Bahor kelishini yoshu qari birdek intizorlik bilan kutishadi. Hatto bahor nafasi ufurushi bilan o't-o'lanlar, maysalar yashil tusga kira boshlaydi. Dov-daraxtlar kurtak qilishga oshiqadi. Bahor yer yuzidagi barcha olam ahli ko'ngliga iliqlik olib kiradi. Shoir shunday fikrlarning isboti sifatida hamda o'z fikrlarini umumlashtirgan holatini "Etkurdi safo yer yuziga fasli bahor" misralari bilan boshlanuvchi ruboiyda ifodalaydi. Yer yuziga bahor fasli kelgani, bahor tashrif buyurishi bilan gul-u, lolalar ochilib, qad rostlagani tufayli olam ahlini xursandchilik qilish uchun chamanlar, gulzorlar ichra bazm uyushtirishga chorlaydi. Bazmda shodlik, xurramlik mayini ichaylik deb o'quvchini hayotsevarlikka undaydi.

Bahor tarovati aks ettirilgan yana bir ruboiysida ham bahor va uning fazilatlari keng yoritilgan.

*Ayyomi bahor keldi hangomi nishot,
Ey gul, icholi gulshan aro jomi nishot,
Bu fasldurur usru g'animat bukun,
Kim, tonglog'a qolmagusi anjomi nishot.*

Shoir yuqoridagi misralarda bahorning ko'p yaxshi xislatlari borligini ifodalar ekan, bahorning xursandchilik, kishiga quvonch ulashuvchi fasl ekanligi,

shu sababli shoir insonni shodlik jomidan bahramand bo'lishga chaqiradi, ammo ruboiyda bahorning g'animatligi ya'ni tez o'tib ketishi, quvonchning tez tugallanishi haqidagi fikrlar kitobxonni o'ylashga chorlasa-da, tufayli go'zalliklardan bahramand bo'lishga undash g'oyasi kuchli. Shoirning ta'sirchan misralari o'quvchini o'ziga rom qiladi, ko'nglida tabiatga nisbatan iliqlik uyg'otadi. "Tabiat fasllariga xos har xil voqea-hodisalar ifodasi, erta ko'klamdan qahraton qishgacha bo'lgan alohida-alohida manzaralar va shularga uyg'un ravishda goh ko'tarinki, goho mahzun insoniy kayfiyat tasvirlari bilan ham she'riyatda realistik tamoyilning boyishiga Ogahiy munosib hissa qo'shgan edi" [4,12], -deb yozadi ogahiyshunos olim I.Haqqulov. Haqiqatan ham Ogahiyning tabiat tasviri bilan bog'liq bir qancha ruboiylari (masalan qish tasviriga bag'ishlangan) borki, ular tabiat fonida ijtimoiy hayotning mashaqqati, insonning turmush tarziga qanchalik ta'siri kuchli bo'lganligini aks ettiradi. Shuni ham ta'kidlash lozimki, shoirning boshqa janrlardagi asarlarida ham tabiat tasviriga, uning inson hayotidagi o'rniga (masalan, Navro'z ayyomi bilan bog'liq g'azallar) katta e'tibor qaratilganini ko'rishimiz mumkin.

Shoirning turli mavzulardagi har bir ruboiysi o'z go'zalligiga ega. Har bir ruboiy shoir ko'zlagan maqsadni o'quvchiga yetkazish xususiyatiga egaki, oradan shuncha vaqt o'tsa-da, Ogahiy asarlari she'rxon qalbini zabt etib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Носиров О., Жамолов С., Зиёвуддинов М. Ўзбек классик шеърляти жанрлари. – Т.: Ўқитувчи, 1979, 154-166-бетлар; Ҳаққулов И. Рубоий – маънолар баҳрида. Китобда: Аъзамов А., Ҳаққулов И. Масъул сўз. – Т.: 1987, 171-188-бетлар; Очилов Э. Муборак сарчашмалар. – Тошкент: Ўқитувчи. 1997.

2. Огаҳий М. Асарлар. 4-жилдлик. 1-жилд. Тошкент. Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат, 1971.

3. Абдуғафуров А. Огаҳлар огаҳи. Китобда: Муҳаммад Ризо Огаҳий. Ишқ аҳлининг тумори.Т.: 1999.

4. Ҳаққулов И. Огаҳий шахси ва шоирлиги. Китобда: Ҳаёт, адабиёт ва абадият. Тошкент: Тафаккур, 2019.

MUNDARIJA

OGAHIIY SHE'RIYATINI O'RGANISH MUAMMOLARI

HAQQULOVI Ibrohim. Haqiqat va abadiyat.....	3
JUMAXO'JA Nusratullo. G'azalda faqru fano talqini.....	11
ADIZOVA Iqboloy. "Ustina" radifli g'azal takomili tarixi.....	17
O'RAYEVA Darmonoy. JALILOVA Zarnigor. Ogahiy she'riyatida ma'shuqa go'zalligining gullar vositasida ifodalanishi.....	24
YUSUPOVA Dilnavoz. Ogahiy taxmisilari.....	29
AHMEDOVI Shoir. TESHAYEVA G. Ogahiy ruboiylarida tabiat tasviri.....	34
QUVVATOVI Dilrabo, SOHIBOVA Zarnigor. Ogahiy ijodida bahor tasviri.....	38
G'AYIPOV Dilshod. Ogahiy she'riyatidagi shohbaytlar haqida	43
MULLAXO'JAYEVA Karomat. Dardangiz devon sohibi.....	49
BEKOVA Nazzora. Bir musamman tahlili.....	53
NURIDDINOV Shahobiddin. Ogahiy g'azallariga komil muxammaslari.....	60
RAJABOVA Ma'rifat. Navoiy va Ogahiy ijodida mifologik obrazlar tasviridagi mushtarakliklar.....	66
TILAVOV Abdumurod. Ogahiy ruboiylarida olam va odam talqini.....	70
SABITOVI Tojixon. Ogahiy ijodida Navro'z madhi.....	73
MATYOQUBOVA Tozagul. Ogahiy lirikasida pari obrazining poetik tasviri.....	76
AMONOVI Zilola. Ogahiyning Nasimiya tatabbu'si.....	82
ASHUROVI Gulbahor. "Xazon yetkan nishonidur qirov gar tushsa bog' uzra...".....	88
MAHMUDOV Jasurbek. UMAROVA Sohiba. Ogahiy va Tabibiy tahmidlari to'g'risida.....	92
AMONOV Shermuhammad. "Hayratu-l-ushshoq" devonidagi Ogahiy g'azallariga yozilgan muxammaslar haqida.....	96
QUVVATOVI Dilrabo, O'ROQOVA Nafosat. Komil Avaz ijodida Ogahiy obrazi talqini.....	102
TOJIBOYEVA Ozoda. Ogahiy she'riyatida an'ana va o'ziga xoslik.....	107
KARIMOV Islombek. Ishq-muhabbat mavzusi Ogahiy nigohida.....	111
RAHMONOVA Shahnoza. Ogahiyning mustazod yaratishdagi mahorati.....	115
KAZAKBAYEVA Dilrabo. Muhammadrizo Ogahiyning "Aziz jong'a" tarji'bandi xususida.....	120

ABDUSAYIMOVA Dilfuza. Ogahiy mustazodida ishq talqini.....	125
OTAXANOVA Mahmuda. Ogahiy lirikasi badiiyati	130
QOZAQOV Sadridin. Ogahiy ijodida Iso Masih timsoli.....	134
XUDAYBERGANOV Yodgorbek. Ogahiy g‘azallarida talmeh san’ati.....	138
IBRAGIMOVA Umida. Ogahiy va Hofiz Xorazmiy ijodida tazod san’ati	141
RUZMETOV Shahzodbek. Ogahiyning hamd g‘azallarida vazn va qofiya munosabati	145

OGAHIIY NASRI, TARIXIY VA TARJIMA ASARLARI

JABBOROV Nurboy. “Firdavsu-l-iqbol” – Ogahiyning badiiy-tarixiy nasrdagi ilk tajribasi	149
SHODMONOV Nafas. Badiiy-tarixiy nasr matni yaxlitligini ta’minlashda she’riy asarlarning o‘rni (“Shohidu-l-iqbol” asari misolida).....	166
O‘ROZBOYEV Abdulla. Xazon bilmas davlat bog‘lari (“Riyozi-d-davla”ning ilk to‘la nashri munosabati bilan).....	174
XALLIYEVA Gulnoz, ADAMBAYEVA Nargiza. Ogahiy ijodining Amerikada o‘rganilishi.....	181
ZIYAYEVA Dono. Muhammad Rizo Ogahiyning tarixiy asarlari	185
HAMROYEVA Orzigul. “Debocha”dagi saj‘ning poetik vazifasi	188
HAYDAROV Toir. “Qobusnoma”ni o‘zlashtirishga oid besh jihat.....	193
SA‘DULLAYEV Bahrom. “Firdavsu-l-iqbol” asarida chap qirg‘oq Kat-qal’a tarixiga doir ma’lumotlar haqida.....	197
MANSUROV Sobir. Sa’diyning “Guliston” asari tarjimasining G‘afur G‘ulom nusxasi haqida	201
JUMAYEVA Dilnoza. “Yusuf va Zulayxo” dostonining Ogahiy tarjimasiga doir ayrim mulohazalar	205
RAZZAQOV Jahongir. Ogahiy asarlarida Xiva xonligining Angliya bilan munosabatlari	209
RO‘ZIYEV Elbek. “Firdavsu-l-iqbol”dagi nazmiy parchalar va ularning badiiyatiga doir ayrim mulohazalar	213

TA’LIM TIZIMIDA OGAHIIY ASARLARINI O‘QITISH MUAMMOLARI

ABDURAHMONOVA Barno. Ogahiy hayoti va ijodini o‘rganishning umumta’lim maktablari adabiyot dasturlaridagi ifodasi	218
AVAZOVA Gulrux. Ogahiy ijodini o‘rganishda yangicha yondashuvlar.....	222